

Toshkent viloyati Chirchiq shahar
Adliya bo'limi Davlat xizmatlari
markazi tomonidan

2023 yil "31" oktabr kuni

2301444 - raqami
bilan

"QAYTA RO'YHATGA OLINDI"



Toshkent viloyati Chirchiq shahar
3-sonli Bolalar musiqa va
san'at maktabining
U S T A V I

2023 yil.

I. NOMI, JOYLASHGAN YERI, MUASSISI.

- 1.1 Chirchiq shahar 3-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi, qisqartirilgan nomi "Maktab"
- 1.2 Joylashgan yeri: O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Chirchiq shahri 1 kichik noxiya 81 uy.
- 1.3 Muassis – Toshkent viloyati Madaniyat boshqarmasi.

II. UMUMIY QOIDALAR.

2.1 Chirchiq shahar 3-son Bolalar musiqa va san'at maktabi (qisqartirilgan nomi "Maktab") o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrdagi "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 414-sonli qarori, ta'lim – tarbiya sohasida vakolatli bo'lgan boshqa davlat boshqaruv organlarining me'yoriy xujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq Davlat ta'lim talablari asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim haqida» gi qonunga, asosan yosh avlodni san'at turlariga qiziqish va qobiliyatni rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, o'zbek xalqining milliy qadriyatlariga nisbatan xurmat ruhida tarbiyalash madaniy va ma'naviy saviyasini har tomonlama kamol toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tasarrufida bolalar musiqa va san'at maktablari tashkil qilingan.

2.2 Maktab tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs bo'lib, o'zining mol-mulki, mustaqil balansi, gerbli dumaloq muxri, burchak tamg'asi, davlat, tijorat va boshqa turdagi banklarda hisob raqami, davlat namunasidagi xos qog'ozi, peshlaxvasi va boshqa rekvizitlariga ega. Bolalar musiqa va san'at maktablarining maqsad va vazifalari o'quvchilarga umumiy musiqa, tasviriy va raqs san'ati bilimlarining boshlang'ich asoslarini o'rgatib, ularni san'at olamiga yetaklash, shuningdek jahon klassik musiqa-adabiyoti va o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalari, ustoz-shogird ananalari asosida san'atning barcha turlaridan baxramand kilishdan iborat. Badiiy xavaskorlik jamoalarining faol qatnashchilarini va estetik bilimlar targ'ibotchilarini tarbiyalash, iqtidorli o'quvchilarni shu soxaning o'rta-maxsus bilim yurtlariga kirish uchun tayyorlashdan iborat.

2.3 Bolalar musiqa va san'at maktablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim haqida" gi qonunning II-bobiga binoan tashkil qilinadi. Ular maxalliy sharoitlarni hisobga olgan hamda zarur bino, xo'jalik jihozlari, musiqa asboblari, o'rta maxsus va oliy ma'lumotga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan taminlanadi.

2.4 O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san'at maktabida musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, damli va zarbli cholg'ular, xalq cholg'ulari, estrada xonandaligi, estrada cholg'u ijrochiligi, an'anaviy ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, baxshichilik,) xamda san'at (xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy san'at, amaliy san'at,) yo'nalishlarida faoliyatini amalga oshiradi. Bo'limlarga rahbarlik qilish tajribali muallimlaridan biriga yuklatiladi na unga O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunga asosan qo'shimcha haq to'lanadi. IV bob 34-modda.

2.5 Mazkur maktablardagi o'qish muddati O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tomonidan tasdiklangan o'quv reja va dasturlari orqali belgilanadi.

2.6 Bolalar musiqa va san'at maktablarida xujjatlar ikki tilda o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida O'zbekiston Respublikasi xududida yashovchi fuqarolarning farzandlari o'zlari tanlagan tilda o'qish xuquqiga ega. ("Ta'lim haqida" gi qonun 1-bob, 5-modda va "Davlat tili" haqida qonun 13-modda).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi chet ellik fuqarolarning farzandlari san'at maktablariga umumiy talablar asosida qabul qilinadilar. Birinchi sinfga quyidagi yoshdagi bolalar qabul qilinadilar:

T/r	Ta'lim yo'nalishlari	Qabul yoshi	O'qish muddati
Musiqa yo'nalishi			
1.	Fortepiano	6 – 9	7 yil
2.	Torli cholg'ular	6 – 9	7 yil
3.	Damli va zarbli cholg'ular	6 – 11	5 yil
4.	Xalq cholg'ulari	6 – 11	5 yil
5.	Akademik xonandalik	6 – 11	5 yil
6.	An'anaviy cholg'u ijrochiligi	6 – 11	5 yil
7.	An'anaviy xonandalik	6 – 11	5 yil
8.	Estrada cholg'u ijrochiligi: fortepiano, torli cholg'ular; damli va zarbli cholg'ular	6 – 9 6 – 11	7 yil; 5 yil
9.	Estrada xonandaligi	6 – 11	5 yil
10.	Baxshichilik ijrochiligi	6-11	5 yil
San'at yo'nalishi			
11.	Xoreografiya	6 – 11	5 yil
12.	Tasviriy san'at	6 – 11	5 yil
13.	Amaliy san'at	6 – 11	5 yil
14.	Teatr san'ati	6 – 11	5 yil

2.7 O'quv yili muassasada 2 sentabrdan kelgusi yilning 31 may kuniga qadar davom etadi va to'rtta chorakka bo'linadi.

2.8 O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:

o'quv yilining davomiyligi - 34 hafta;

o'quv haftasining davomiyligi - 6 kun;

dars mashg'ulotining davomiyligi - 45 daqiqa;

dars mashg'ulotlari oralig'idagi tanaffusning davomiyligi -5 daqiqa etib belgilanadi.

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida bayram (ishlanmaydigan) kuni deb belgilangan kunlarda dars mashg'ulotlari o'tkazilmaydi. Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelib qolgan dars mashg'ulotlarining mavzulari o'quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg'ulotlarida o'tkaziladi.

2.9. O'quv yili davomida ta'tillar muddati quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta'til - 4 noyabrdan boshlab 6 kalendar kun;

qishki ta'til - 28 dekabrdan boshlab 14 kalendar kun;

bahorgi ta'til - 21 martdan boshlab 7 kalendar kun;

yozgi ta'til - 1 iyundan boshlab 2 sentabrgacha.

Ta'tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kunga to'g'ri kelib qolgan taqdirda dars mashg'ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom ettiriladi.

Choraklar oralig'idagi ta'tillar davrida pedagog xodimlar tomonidan o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning bilim saviyasini tahlil qilish va ular bilan qo'shimcha ishlash, ularga maslahatlar berish, o'quvchilar uchun shaxsiy va taqvimiy ish rejaları tuzish kabi ishlar amalga oshiriladi.

2.10. Muassasada sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlari har yili 11 maydan 31 maygacha o'tkaziladi.

2.11. Muassasa bitiruvchilariga iyun oyida o'qishni tugatganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

2.12. Muassasani tugatishiga bir yil qolgan, iqtidorli, barcha fanlardan o'zlashtirishi yuqori bo'lgan, o'z yo'nalishi bo'yicha ta'limning keyingi bosqichida o'qish istagini bildirgan o'quvchiga mutaxassislik o'qituvchisining tavsiya xati va ota-onasi arizasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisi ekanligini, shuningdek, ijro dasturini to'liq bajara olishini hisobga olib, pedagogik kengash qarori bilan o'qish muddati bir yilga qisqartirilishi mumkin.

2.13. O'quvchilar muassasadan quyidagi holatlarda direktor buyrug'i bilan chetlashtirilishi mumkin:

ota-onaning arizasiga ko'ra;

o'quvchining o'z xohishiga binoan;

o'qishning boshqa muassasaga ko'chirilishi munosabati bilan;

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);

akademik o'zlashtira olmaganligi uchun;

o'quv intizomini va ichki tartibi qoidalarini buzganligi uchun;

o'qish uchun belgilangan to'lovning o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lovdan ozod etilgan o'quvchilar bundan mustasno);

o'quvchining sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

pedagogik kengash qarori bilan;

vafot etganligi sababli.

2.14. Ota-onalarning arizasi asosida o'quvchiga muassasa direktorining buyrug'iga muvofiq bir yil muddatga akademik ta'til berilishi mumkin.

2.15. Bitiruv imtihonlarini topshira olmagan o'quvchilarga muassasada o'qiganligi to'g'risida ma'lumotnoma beriladi.

2.16. Muassasa Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining qarori bilan tashkil etiladi.

2.17. Muassasada ta'lim jarayoni davlat tilida yoki boshqa tillarda olib boriladi.

2.18 Musiqa va San'at maktabiga o'quvchilar qabuli O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (xokimliklar boshqarmalari va bo'limlari) rejalashtirgan kontingentga asosan amalga oshirilishi, bo'limlar va sinflarga to'g'ri taqsimlanishi lozim.

2.19 Musiqa va San'at maktabi qoshida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tayyorlov guruhleri tashkil qilinishi mumkin. Bu guruhlarning asosiy vazifalari bolalarga musiqa,

raqs, musavvirlik san'atining boshlang'ich ma'lumotlarini o'rgatib, ularning qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishdan iborat. O'z-o'zini moliyaviy ta'minlash asosida tuzilgan tayyorlov guruhlarining qatnashchilari musiqa va san'at maktabiga umumiy talablar asosida qabul qilinadilar.

2.20 Namlari zikr ztilgan maktablarda o'qishga kirish uchun arizalar direktor nomiga yozilib, bolaning yoshi va yashash joyi ko'rsatilishi va unga bolaning sog'ligi to'g'risidagi tibbiyot ma'lumotnomasi ilova qilinishi shart.

Qabul sinovlari maktab direktori yoki o'quv-ta'lim ishlari bo'yicha o'rinbosari boshchiligida bo'lim boshliqlari va o'qituvchilar tarkibidan tashkil topgan qabul komissiyasi xuzurida o'tkaziladi. Musiqa bo'limlarining birinchi sinfiga qabul qilinganlarni musiqa cholg'ulari ixtisosligiga taqsimlash xuquqi komissiya a'zolariga beriladi. Qabul sinovini qayta topshirish man qilinadi.

2.21 O'quvchilarni Musiqa va San'at maktabiga qabul qilinish, qabul kamissiyasi qarori va maktab direktorining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

2.22 Musiqa va San'at maktabida o'kitish uchun to'lov miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

III. MAKTABNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

3.1 Maktabning asosiy maqsadi yoshlarni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash hamda ularning ta'lim olish xuquqini ro'yobga chiqarish, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirish, dastlabki kasb yo'nalishini va ta'limning keyingi bosqichini tanlashga ko'maklashish

3.2. Maktab, ta'lim-tarbiya sohasidagi quyidagi vazifalarni xal etishni o'z zimmasiga oladi:

- o'quvchilarning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat'iy nazar umumiy o'rta ta'lim olishlarga yaratib berish;
- fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim dasturlarini bajarish;
- ta'lim berish jarayonida fan va ishlab chiqarish yutuqlaridan samarali foydalanish;
- ta'lim jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qitishni kompyuterlashtirish;
- ta'limning uzluksizligini ta'minlash;
- qobiliyatli, iqtidorli o'quvchi – yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular iste'dodini rivojlantirish;
- o'quvchi – yoshlarda foydali mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va kasbga yo'naltirish;
- O'zbekiston xalqining tarixiy, milliy, axloqiy, insoniy, ma'naviy va madaniy boyliklarini, urf-odatlarini qadrlaydigan, Vatanini, millatini sevadigan, ularni ximoyalaydigan va o'z mustaqil fikri, dunyoqarashi, nuqtai-nazari bo'lgan shaxsni shakllantirish;
- Aqlan teran, jismonan barkamol, axloqan pok, ma'naviy yetuk, madaniyatini, inson xuquqlarini qadrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor, Vatanga sadoqatli, insonparvar, fidoiy shaxsni tarbiyalash.

IV. MAKTABNING TA'LIM – TARBIYA JARAYONI VA UNI TASHKIL ETISH.

- 4.1.** Musiqa va San'at maktabida o'qish va o'qitish ishlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlari asosida amalga oshiriladi.
- 4.2.** Mashg'ulotlar 2 sentabrdan boshlanadi va vazirlik tomonidan belgilangan muddatda yakunlanadi. O'quv yili o'quv choraklariga bo'linadi. Kuzgi, qishki, baxorgi va yozgi ta'tillar.
- 4.3.** Maktabda o'quv tarbiya ishlarining asosiy shakli dars hisoblanadi.
- 4.4.** Bir soatlik dars jarayoni - 45 daqiqa. Darslar orasida 5 daqiqali tanaffuslar bor.
- 4.5.** O'quv rejasiga muvofiq maktabda o'quvchilarning o'quv manbalarini to'liq o'zlashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonini ta'minlash uchun quyidagi asosiy faoliyat turlari amalga oshiriladi.
- a) gurux va yakka tartibdagi mashg'ulotlar;
 - b) o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlari.
 - v) o'quvchilarning konsertlarda, sinov va imtixonlarda chiqishi (musiqa va raqs bo'limlari uchun)
 - g) o'quvchilarning mustaqil ravishda ishlagan rasmlar va amaliy ishlar namoyishi, ko'rgazmalarini tashkil qilish (tasviriy va amaliy san'at o'quvchilari uchun) yozgi amaliy mashg'ulotlarni uyushtirish.
- 4.6.** O'quvchilarning bilimi quyidagi tartibda baxolanadi:
5 (a'lo), 4 (yaxshi), 3 (o'rta), 2 (yomon), 1 (juda yomon). O'quvchilarning tartib-intizomi esa "Namunali", "Qoniqarli", "Qoniqarsiz" tarzida belgilanadi.
- O'quvchining xulqini «Qoniqarli» bal bilan baxolash mutaxassislik o'qituvchisi yoki sinf rahbari tomonidan, boshqa fan o'qituvchilari bilan kelishilgan xolda amalga oshiriladi. «Namunali», «Qoniqarsiz» bali esa o'qituvchilar kengashining roziligi asosida qo'yiladi.
- O'quvchining choraklik va yakuniy baxolari uning yil davomidagi o'zlashtirish asosida mutaxassislik o'qituvchisi tomonidan qo'yiladi. Imtixon o'tkaziladigan sinflarda o'quvchilarning yakuniy baxolari, choraklik va imtixon baxolarini hisobga olgan xolda imtixon komissiyasi tomonidan qo'yiladi.
- 4.7.** Musiqa va San'at maktabining o'quv rejalari asosida sinovlar, sinfdan-sinfga ko'chirish va bitirish imtixonlari o'tkaziladi.
- 4.8.** Ayrim xollarda o'quvchilarga "Akademik konsert", sinfdan-sinfga ko'chirish va bitirish imtixonlarini muddatdan avval topshirish xuquqi maktab direktori ruxsati bilan berilishi mumkin.
- 4.9.** O'qituvchilar kengashining qaroriga asosanlangan holda maktab direktori buyrug'i bilan o'quv rejasini va dasturini bajara olmagan yoki ma'lum sabablarga ko'ra o'quvchi ota-onasining arizasiga asosan o'quvchilar sinfida qayta qoldirilishi mumkin.
- 4.10.** Uzrsiz sabablarga ko'ra, muntazam ravishda o'quv rejasini bajarmagan hamda mutaxassisligi va solfedjiodan yakuniy baxolari qoniqarsiz bo'lgan o'quvchilar, o'qituvchilar kengashi qaroriga asosan maktab o'quvchilari safidan chiqariladilar.
- 4.11.** O'quv mashg'ulotlarini o'zlashtira olmaganlarni o'quvchilar safidan chiqarish o'quv yili tugallanishi bilan o'qituvchilar kengashi qarori va maktab direktori buyrug'iga asosan oshiriladi.
- 4.12.** O'quvchilar qoidasi xamda surunkali ravishda maktab intizomini buzgan, uzrli sabablarsiz dars koldirgan yoki o'kish uchun badal to'lovini o'z vaqtida to'lamagan o'quvchilar, o'quv yili davomida maktab o'quvchilari safidan chiqarilishlari mumkin.
- 4.13.** Sinfdan-sinfga ko'chishda, barcha fanlardan a'lo baxolar olgan, maktabning jamoatchilik ishlarida faol qatnashgan, namunali xulqi bilan ajralib turgan o'quvchilar o'qituvchilar kengashining qarori va maktab direktori buyrug'iga asosan maqto'v yorlig'i bilan taqdirlanadi.

4.14. Sinov va imtixonlar paytida kasal bo'lgan yoki sinfdan-sinfga ko'chish imtixonlaridan qoniqarsiz baxo olgan o'quvchilar uchun sinov va imtixonlarni qayta topshirishga ruxsat beriladi. Mazkur imtixonlarni qayta topshirish 20 sentabrgacha tugallanishi lozim.

Agarda o'quvchi qayta topshirish vaqtida ham «Qoniqarsiz» baxo olsa, maktab o'quvchilari safidan chiqariladi.

4.15. Bitiruvchi sinf o'quvchisi yakuniy imtixonlar paytida kasal bo'lsa (tibbiyot xulosasi ma'lumotnomasi bo'lgan holda), sog'aygandan so'ng imtixon topshirishiga ruxsat beriladi va muddati belgilanadi.

O'quv yilining oxirida akademik konsertlar, sinovlar va tekshiruv darslarini topshirish paytida kasal bo'lgan o'quvchi (tibbiyot xulosasi yoki ma'lumotnomasi bo'lgan holda), yil davomida «Qonikarli» baxolarga ega bo'lsa, o'qituvchilar kengashi qarori bilan yakuniy baxolar asosida sinfdan-sinfga ko'chirilishi mumkin.

4.16. Shartli ravishda sinfdan-sinfga ko'chirish ta'qiqlanadi.

4.17. Bir maktabdan ikkinchi maktabga o'tish istagi bo'lgan o'quvchi (bo'sh o'rin bo'lgan taqdirda), o'zlashtirish tabeli asosida imtixonlarsiz o'z sinfga qabul qilinadi, o'quv yilining oxirida esa o'qituvchilar kengashi qarori bilan uning qaysi sinfdan o'qishni davom ettirishiga xal etiladi.

4.18. Musiqa va San'at maktabini bitirgan o'quvchilarga maktabni tugatganligi to'g'risidagi guvoxnoma umumiy majlisda tantalali ravishda topshiriladi.

4.19. Musiqa va San'at maktabi bitirish imtixonlarini topshira olmagan o'quvchilarga o'qish davridagi o'zlashtirishiga asosan malumotnoma berilishi mumkin.

4.20. O'quvchilarning sinfdan-sinfga ko'chirilishi, bitiruvchilarga guvoxnomalarning berilishi o'qituvchilar kengashi qaroriga asoslangan maktab direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

4.21. O'qituvchilar kengashining qaroriga asosan qobiliyatli o'quvchilarga musiqa va sanat bilim yurtiga kirish uchun tavsifnomalar beriladi.

V. MAKTAB O'QUVCHILARINING XUQUQ VA VAZIFALARI.

5.1 Muassasa direktori bilan o'qishga qabul qilingan o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida o'qish muddatiga shartnoma tuziladi.

5.2 Muassasa o'quvchilarining huquqlari quyidagilardan iborat:

maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari asosida ixtiyoriy ravishda ta'lim olish;

qiziqishiga ko'ra ta'lim yo'nalishini tanlash;

bir necha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim olish;

insoniy qadr-qimmatning hurmat qilinishini talab qilish, vijdon erkinligi, axborot erkinligi va o'z qarashlarini ifodalash.

Muassasa o'quvchilari qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.3 Muassasa o'quvchilarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ichki tartib qoidalariga rioya qilish;

moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish va uni asrab-avaylash;

jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish;

o'z ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmasini hosil qilish va uni amalda qo'llash.

VI. MAKTAB PEDAGOG KADRLARI.

- 6.1.** Musiqa va San'at maktabining o'qituvchilari, yoshlarni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan estetik va ma'naviy ruhda tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani bajaradi.
- 6.2.** Musiqa va San'at maktabining o'qituvchilari, o'qituvchilar kengashi, o'quv-tarbiya ishlariga bag'ishlangan konferensiyalar, majlislar, shuningdek, o'qituvchilar faoliyatini tekshirish bo'yicha o'tkaziladigan maktab rahbariyatining yig'ilishlarida qatnashadi.
- 6.3.** Musiqa va San'at maktabining o'qituvchilari oliy yoki o'rta maxsus (musiqa, tasviriy san'at, raqs) ma'lumotga ega bo'lishlari va diplomda ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha dars berishlari lozim.
- 6.4. Maktab o'qituvchilarining asosiy vazifalari:**
- o'quvchilarning madaniy dunyoqarashini shakllantirish;
 - san'at asoslari (musiqa, tasviriy san'at, raqs) orqali o'quvchilarni bilimni mustaxkamlab borish;
 - dars jarayonida ta'limning texnik vositalardan ijodiy foydalanish;
 - o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirish;
 - san'atning faol targ'ibotchilarini (tarbiyalash) tayyorlash;
 - ota-onalar va umumta'lim maktablari bilan aloqani mustaxkamlash;
 - o'zining kasb va ijodiy malakasini muntazam oshirib borish;
 - darslarga o'z vaqtida, kechikmay yetib kelish
- 6.5.** O'qituvchilar kengashi, bo'lim majlislari, sinov va imtixonlar hamda maktab va maktabdan tashqari o'tkaziladigan barcha tadbirlarda faol qatnashish uning xizmat burchi doirasiga kiradi.
- 6.6.** O'qituvchi maktab jamoasining ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy faoliyatiga oid tadbirlarda faol ishtirok etadi.
- 6.7.** O'qituvchi tasdiklangan va rasman qabul qilingan o'quv xujjatlari asosida ish yuritadi, o'quvchilar bilan sinfdan tashqari o'tkazilgan mashg'ulotlar to'g'risida maktab raxbariyatiga hisobot beradi. Shu bilan birga o'quvchilarning darslari o'zlashtirishiga bilim saviyasiga va tarbiyasiga javob beradi.
- 6.8.** Musiqa va San'at maktabi o'qituvchilarning faoliyati maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, bo'lim mudiri tomonidan nazorat qilinadi.
- 6.9.** O'qituvchilar darsgacha 15 daqiqa oldin kelishlari va o'quvchilarni kutib olishlari kerak.
- 6.10.** O'qituvchilarni ishga qabul qilish, Respublika xukumatining kontrakt - shartnoma hakidagi qaroriga asosan oshiriladi. ("Ta'lim to'g'risida" gi Qonun 31-modda IV bob).
- 6.11.** Yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan o'qituvchilar va jo'rnavorlar ustama xaqi olishga xaqidirlar (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi va moliya Vazirligining 2008 yil 31 dekabrda 46,121-sonli qarori);

VII. MAKTABNI BOS HQARISH.

- 7.1.** Musiqa va San'at maktabining umumiy faoliyatga raxbarlik maktab direktori tomonidan amalga oshiriladi. Direktorning tayinlanishi va vazifasidan ozod etilishi amaldagi qonun asosida viloyat madaniyat boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Raxbarlik, ish tajribasi 3 yildan kam bo'lmagan maxsus oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar direktor etib tayinlanadi. Direktor, o'qituvchilar kengashiga tayangan xolda maktab faoliyatini boshqarib boradi va u xukumat oldida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan o'quv-tarbiya ishlarining tashkil qilinishi, uning sifati xamda maktabning moliyaviy-xo'jalik ishlari uchun javob beradi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, direktor va uning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari o'z mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan xajmda dars berishlari mumkin.

7.2. Maktab direktorining vazifalari:

- O'qituvchilar jamoasiga rahbarlik qiladi, mutaxassis kadrlarni to'g'ri tanlab joyiga qo'yish bilan shug'ullanadi. O'qituvchilarga, yordamchi-o'quv xodimlariga pedagogik va ijodiy maxoratlarini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

- Darslarda ishtirok etib, unda o'quvchilarning intizomi va bilim saviyasini xamda maktab va sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarniig tashkil etilishi va mazmunining nazoratini amalga oshiradi.

- O'quvchilarni kasbga yunaltirish uchun zarur bo'lgan ishlarni tashkil qiladi, shuningdek, maktabning xarajat va daromadlar smetasiga rioya qilinishini nazorat qiladi.

- Maktab xodimlarinnng barcha majburiyatlarini mehnat qonunlari, ichki intizom qoidalari xamda ushbu nizomga asosan belgilaydi.

- Maslaxat darslari va qabul sinovlarini o'tkazishni maktab o'qituvchilari zimmasiga yuklaydi.

Belgilangan tartibda o'qituvchi, yordamchi-o'quv xodimlari va ma'muriy-xo'jalik xodimlarini ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi.

Izox: O'qituvchilar va yordamchi-o'quv xodimlarini jamlash (komplektovanie) o'quv yilining boshlanishiga qadar tugallanishi kerak.

- Maktabda mehnat intizomi, sanitariya-gigiena tartibi, mehnatni muxofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni tashkil etadi.

- O'qituvchilar jamoasi bilan birgalikda umumta'lim maktablari, madaniyat uylari, mahallalar o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatadi.

- O'quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik bilan ish olib borishni tashkil qiladi. Ota-onalar qo'mitasining ish faoliyatini yunaltiradi.

- Tegishli tashkilotlarga xisobot beradi.

- Davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan maktab vakili sifatida ish olib boradi.

- Mehnat, o'quv-tarbiya intizomlarini buzgan xodimlarni O'zbekiston Respublikasining mehnat Qonunlari xamda maktab mehnat intizomi ichki qoidalariga asosan jazolaydi.

- Maktab o'qituvchi va ishchi-xizmatchilarini rag'batlantirish va mukofotlashga taqdim etadi.

- O'qituvchilar kengashi qarorini tasdiqlaydi yoki bekor qiladi.

Direktor farmoishining bajarilishi barcha o'quvchi, o'qituvchi va ishchi-xizmatchilar uchun shart, faqat yuqori tashkilotlar uni bekor qilish xuquqiga ega.

7.3. Maktab o'quv va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari:

Maxsus oliy (musiqqa, tasviriy sanat, o'rta maxsus yoki oliy raqs) ma'lumot va kamida 3 yil o'qituvchilik xamda ijodiy mehnat faoliyatiga ega bo'lgan ilg'or o'qituvchilardan biri o'quv va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga tayiilanadi.

7.4. O'quv va ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabda o'quv-tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilinishiga, o'quv rejalari, dasturlarniig bajarilishiga, dars sifatiga va o'quvchilar bilimiga javob beradi: o'quv-tarbiyaviy ishlar va o'quv xujjatlarining mazmuni, o'quvchilarning davomati va o'zlashtirishni nazorat qiladi.

- Bo'lim xabarlarini, o'qituvchilar, yordamchi-o'quv xodimlarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib boradi.

- Maktabda o'quv-uslubiy ishlarini tashkil qiladi.

- O'qitish uslubi, shaklini tekshirish maqsadida darslarga qatnashib boradi, shuningdek, guruhlar va yakka darslar jadvaliga o'qituvchilarning rioya qilishini kuzatadi.

Maktabning o'quv-tarbiyaviy, uslubiy ish rejalari, darslar jadvali, ochiq darslar rejasi, sinov, imtixonlar jadvali, o'quvchilarning o'qituvchilarga taqsimlanishining loyixalarini tuzadi va tasdiq uchun maktab direktoriga taqdim etadi. Direktor bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaradi.

- O'qituvchilar, jo'rnavorlar tomonidan dars jadvali va boshqa o'quv uslubiy, tarbiyaviy tadbirlar xamda ishlarning bajarilishini nazorat qiladi.

- O'qituvchilar va jo'rnavorlar tomonidan o'tilayotgan dars soatlarining to'g'ri bajarilishiga javob beradi va dars soatlarining xisobini yuritadi.

7.5. Musiqa va San'at maktabida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'lik asosiy masalalarni muxokama qilish, yechimlarni topish uchun o'qituvchilar kengashi tashkil qilinadi.

O'qituvchilar kengashi tarkibiga maktab direktori (rais), o'quv va ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, bo'lim boshliqlari, o'qituvchilar va yordamchi-o'quv xodimlari kiradi. Zarur bo'lgan taqdirda ota-onalar qo'mitasining raisi, o'qituvchilar kengashining majlisiga taklif qilinadi. Direktor bo'lmagan vaqtda o'quv va ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'qituvchilar kengashiga raislik vazifasini bajaradi. Kotiblik vazifasini maktab o'qituvchilaridan biri, shu vazifaga saylangandan boshlab bir yil muddat ichida bajaradi.

O'qituvchilar kengashi har o'quv choragida bir marta yig'iladi.

O'qituvchilar kengashining vazifalari:

a) Maktab ish rejasini ko'rib chiqadi;

b) Maktab jamoasi va o'quvchilarning - estetik, ma'naviy tarbiyasini yuqori darajada tashkil qiladigan tadbirlarni muxokama qiladi.

v) Maktab direktori, direktor o'rinbosari bo'lim raxbarlari va o'qituvchilarning maktabda olib borayotgan o'quv-tarbiyaaviy, uslubiy ishlarining ahvoli to'g'risidagi ma'ruzalarini eshitadi va muxokama qiladi.

g) O'zbekistan Respublikasi Prezidenti, Respublika xukumati farmonlari, madaniyat vazirligi, viloyat, shaxar, madaniyat boshqarmalari buyruq va farmoishlari asosida maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil etuvchi xamda mazmunini belgilovchi o'quv-uslubiy xujjatlar bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi.

d) Maktabning ochiq konsertlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, sinfdan-sinfga ko'chirish va bitiruv imtixonlarini o'tkazish, a'lochi o'quvchilarga maqtov yorlig'i berish, bitirgan o'quvchilarga guvoxonmalar topshirish va o'quvchilarni maktab o'quv talablarini bajara olmayotgan o'quvchilarni maktab ro'yxatidan chiqarish kabi masalalarni yechadi.

ye) Maktabda o'qish davomida o'zining noyob iqtidorini namoyish qila olgan, o'quvchilarga o'rta maxsus bilim yurtlarida o'kish uchun beriladigan tavsifnomalarni tasdiqlaydi.

O'qituvchilar kengashi majlisi bayonida, muxokama qilgan masalalar yuzasidan so'zga chiqqan notiqalar ma'ruzasining mazmuni bo'yicha qaror qismi bo'lishi shart.

O'qituvchilar kengashining raisi, kengashi qabul qilgan qarorlarning bajarilishini doimiy ravishda tekshirish na ularning bajarilishi hakida yig'ilishlarda ma'lumot berishi shart. O'qituvchilar kengashining qarori maktab direktorining tasdig'idan so'ng kuchga kiradi.

Bo'lim boshlig'ining vazifalari:

7.6. Maktab direktori, o'qituvchilar soni kamida uchta bo'lgan bo'limlarga ilg'or o'qituvchilardan birini bo'lim boshlig'i qilib tayinlaydi.

Bo'lim boshlig'i:

- O'qituvchilarning taqvimiy va o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarni tasdiqlaydi, ularning bajarilishini nazorat qiladi, o'quvchilarning intizomi va o'zlashtirishini kuzatib boradi. O'qituvchilarning sinf mashg'ulotlariga kiradi va uslubiy yordam ko'rsatadi.

- Dars jadvalini tuzish uchun material tayyorlaydi.
 - Bo'limning yillik ish rejasini tuzadi va bo'lim yig'ilishida muxokamaga qo'yadi. Ilmiy bo'lim mudiri tomonidan o'rnatilgan tartib asosida bo'lim ish rejasining bajarilishi to'g'risida xisobot beradi.
 - Sinov va imtixonlar o'tkazish, bo'limning ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati tadbirlarini tashkil qiladi.
 - Maktabga kiruvchilar uchun maslaxat darslari va qabul imtixonlarini tashkil etishda va o'tkazishida qatnashadi.
 - Bo'lim o'qituvchilarining malakalarini oshirish rejasini tuzadi.
 - Maktab o'qituvchilari tarkibining pedagogik maxoratini oshirib borishi bilan bog'lik tadbirlarni tashkil etadi.
- 7.7.** O'qitishning asosiy shakli guruxli mashg'ulotlardan iborat bo'lgan (raqs, tasviriy san'at) bo'limlarida maktab direktori shu bo'lim o'qituvchilaridan birini sinf raxbari etib tayinlashi mumkin.

Sinf raxbarining vazifalari:

- O'zi boshqarayotgan snnf o'quvchilari orasida o'qituvchilar bilan xamkorlikda estetik va ma'naviy tarbiya ishlarini olib boradi.
- O'quvchilar qobiliyati, moyilligi, qiziqish doirasini rivojlanishini har tomonlama o'rganadi.
- Zaruriyat tug'ilganda o'z vaqtida ularga amaliy yordam ko'rsatadi.
- Ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'ladi.
- Belgilangan tartibda xujjatlarni yurg'izadi, o'quvchilarning tartib - intizomini, davomati va o'zlashtirish to'g'rsida ma'lumot beradi.

VIII. OTA-ONALARINING MAJBURIYATLARI VA XUQUQLARI

- 8.1** Ota-onalar yoki qonuniy vakillar voyaga yetmagan bolalarning qonuniy xuquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, umumiy o'rta ta'lim olishlari uchun mas'uldirlar;
- 8.2** Ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar maktab ma'muriyatidan farzandlarining barcha fanlar bo'yicha chuqur, puxta, zamon talablariga javob beradigan darajada yetarli bilim olishlari uchun zarur shart – sharoitlarni yaratib berilishini talab qilish xuquqiga ega;
- 8.3** Ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar maktabni boshqarish ishlarida ishtirok etishlari mumkin;
- 8.4** Ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarning barcha fanlar bo'yicha davlat talablari xajmida bilim olishlari uchun maktab bilan bir qatorda javobgardirlar;
- 8.5** Ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarning sog'lig'i, jismoniy, ruxiy, ma'naviy va axloqiy ahvoli haqida g'amxo'rlik qilishlari zarur;
- 8.6** Ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarning davomati va fanlarni o'zlashtirishi bo'yicha mas'uldirlar.

IX. MAKTABNING MABLAG‘ BILAN TA‘MINLANISHI, MODDIY – TEXNIKA BAZASI VA MOLIYAVIY XO‘JALIK FAOLIYATI.

9.1. Maktab mulki va mablag‘i quyidagilardan tashkil topadi:

a) oylik maoshi, cholg‘u asboblari, har xil jihoz va uskunalar, binosi, uning kommunikatsiyasi, kutubxona, fonoteka.

b) O‘qish uchun to‘lov badali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9.2. Maktab balansida bo‘lgan bino, xona, jixoz va maydonchalari boshqa muassasalarga yuqori tashkilot ruxsatisiz berib yuborilmaydi.

Maktab mulkidan foydalanishga, ularning yong‘inga qarshi xolatiga, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilingan xolda saklanishiga xo‘jalik ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari mas‘uldir, u bo‘lmagan vaqtda direktor javob beradi.

9.3. Madaniyat vazirligi tasarrufidagi musiqa va san‘at maktablari o‘z mansubligiga qarab viloyat boshqarmalariga, maktabning o‘quv-tarbiya va uslubiy ishlari, ma‘rifiy faoliyati to‘g‘risida yillik xisobot beradi. Xisobot va ma‘lumotlar tasdiklangan shakldagi ish qog‘ozida ko‘rsatilgan muddatda topshiriladi.

9.4. Musiqa va San‘at maktabi madaniyat vazirligi ish qog‘ozi namunalari asosida tasdiqlangan maktab xujjatlarini yurgazadi:

a) Nazariy fanlar va mutaxassislik sinf jurnali, o‘quvchilarning shaxsiy ish rejasi va o‘zlashtirish tabeli (qaydnomasi).

b) Maktab bo‘yicha o‘zlashtirish daftari.

9.5 Maktab o‘z maqsad va muammolarini hal qilishda quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi:

- shtat va shtatdan tashqari xodimlar uchun oylik haq to‘lash;
- ishchi va xodimlarga mukofotlar to‘lash;
- komandirovka va ijodiy safarlar uchun pul ajratish;
- maktab binosi undagi musiqa asboblari hamda jixozlarni ta‘mirlash uchun;
- reklama;
- gazeta va jurnallarga obuna bo‘lish;
- xo‘jalik va konselyar mollari, jihozlar va musiqa asboblari xarid qilish;
- o‘qituvchi va jo‘rnavozlarga ustama xaqi to‘lash (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi

Vazirligi va moliya Vazirligining 2008 yil 31 dekabrda 46,121-sonli qarori);

9.6 Musiqa va San‘at maktabi yuridik shaxs xuquqlaridan foydalanadi. U o‘zining mustaqil balansiga, bankdagi xisob raqamiga, muxr va tamg‘asiga va o‘z sarvaraqlariga ega.

9.7 Maktab o‘z-o‘zini ta‘mirlash, boshqarish asosida ish yuritadi.

9.8 Maktab o‘ziga tegishli bo‘lgan mulk va mablag‘ uchun javobgar.

9.9 Maktab o‘z nomidan shartnomalar tuzish xuquqiga ega. Shu jumladan oldi-sotdi shartnomalari, sug‘urta qilish va ishchi kuchlarini yonlash xuquqiga ega.

9.10 Maktab binosidagi xonalarni buyumlarni na jihozlarni, musiqa asboblarni ijaraga berishga, vaqtinchalik foydalanish uchun berishga, hamda yaroqsiz holga kelgan jihoz va musiqa asboblarni balansdan o‘chirish xuquqiga ega.

9.11 Maktab budjet bilan qonunchilikda belgilangan tartibda hisob-kitob qiladi va o‘z hisob raqamidagi mablag‘ni taqsimlash va ishlatish xuquqiga ega.

9.12 Maktab bolalarning iqtidori, iste‘dodi, qobiliyatini hisobga olgan xolda qonunda belgilangan tartibda ixtisoslashtirilgan sinflar ochishi mumkin.

9.13 Maktab bitiruvchilariga ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirish xuquqini beruvchi tasdiqlangan namunadagi guvohnoma beradi.

9.14 Ushbu Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur bo'lgan xollarda qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9.15 Maktab faoliyati qonunda belgilangan tartibda tugatiladi.

9.16 Buxgalteriya xisobi va statistik xisobotlar belgilangan tartibda olib boriladi.

9.17 Maktab ustaviga o'zgartirish ko'shimchalar kiritish xuquqiga ega. Bu xolda ustav madaniyat boshqarmasi tomonidan tasdiqlanishi va shaxar yoki tuman davlat xizmatlari markazi tomonidan ruyxatga olinishi kerak.

X. PULLIK XIZMATLAR.

10.1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentabrdagi Byujet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risidagi № 414 qaroriga asosan Musiqa va san'at maktabi pullik xizmatlarni amalga oshirishi mumkin. **10.2** Yoshi yetmagan bolalar va maktab yoshidan o'tgan o'smirlar uchun kontrakt sinflar tashkil qilinishi mumkin.

10.2 Vaqtincha foydalanilmayotgan xonalarni, musiqa asboblarni ijaraga berishi mumkin.

10.3 Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan xomiylik yordami olishi mumkin.

10.4 Korxonalar, tashkilot va muassasalarda pullik konsert dasturlarini o'tkazishi mumkin.

10.5 Pulik xizmatlardan kelib tushgan mablag' avvalo kreditorlik qarzlarni to'lashga, maktabning moddiy texnik bazasini mustaxkamlash xamda xodimlar mexnatini rag'batlantirishga sarflanadi.

Maktabning pul mablag'i quyidagi tushumlardan tashkil topadi:

- bevosita o'quv faoliyatidan;
- jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan homiylik yordamlari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarning grantlari;
- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar.
- bank kreditlaridan;
- bilim yurtlariga kirmoqchi bo'lgan o'quvchilarni tayyorlash guruhlari;
- o'quvchilar va barcha xohlovchilarni xorijiy tillarga o'rgatish;
- o'quvchilar va fuqarolar uchun tanani sog'lomlashtirish uchun jismoniy rivojlanish, Aerobika bo'yicha turli seksiyalar tashkil kilish va pullik mashg'ulotlar o'tkazish;
- o'quvchilar uchun xoreografiya, tasviriy san'at bo'limlarini, folklor dastalarini, fotostudiya va boshka to'garaklar tashkil qilish;
- yoshi jihatidan bolalar musiqa va san'at maktabiga to'g'ri kelmaydigan o'smirlar uchun shartnoma asosida o'qish kurslarini tashkil qilish (bolalar musiqa va san'at maktabi o'quv dasturi va umumiy talablar asosida ishlaydi va o'z-o'zini ta'minlaydi).

XI. XALQARO XAMKORLIK.

11.1. Maktab mustaqil ravishda ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro xamkorlikda ishtirok etish, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish xuquqiga ega.

11.2 Maktab o'zining vakolat doirasidagi masalalar bo'yicha xorijiy xamkorlar bilan bitimlar tuzishi hamda Ustavga asosan xalqaro nodavlat tashkilotlari faoliyatida qonunda belgilangan tartibda ishtirok etishi mumkin.

11.3. Maktab xorijiy o'quv yurtlari bilan ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat tashkilotlari orqali kelishilgan holda malaka oshirish maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar guruhlari bilan almashishi uchun do'stona aloqalar o'rnatishi mumkin.

Nizom maktab jamoasining
20__yil «__»__da
bo'lib o'tgan o'qituvchilar
kengashida ko'rib chiqilib, qabul
qilingan.